



VIDEVDATDA KOHINLAR INSTITUTI VA UNING BOYSUN ETNOGRAFIK MUHITIDAGI TRANSFORMATSIYASI

Murodova Gulmira Muhiddin qizi,
tayanch doktorant



1-rasm. Zamonaviy zardushtiy kohin marosim amaliyotida.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Zardushtiylik diniy-falsafiy tizimining muhim manbasi bo'lgan Avesto, xususan Videvdat matnida aks etgan kohinlar instituti qiyosiy va funksional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozma manbalar tahlili bilan bir qatorda etnografik materiallar ham jalb etilib, qadimgi marosimiy tizimlarning zamonaviy madaniy muhitdagi strukturaviy davomiyliги o'rganiladi. Boysun hududidagi marosimiy amaliyotlar kohinlar tizimi bilan tipologik jihatdan qiyoslanib, ularning jamoaviylik, funksional mehnat taqsimoti hamda ritual tartib bilan bog'liq jihatlari ochib beriladi. Natijalar Zardushtiylik marosim tizimi murakkab iyerarxik tuzilishga ega bo'lganini va uning ayrim elementlari O'rta Osiyo etnografik an'analarida transformatsiyalangan holda saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar:

Avesto, Videvdat, kohinlar tizimi, Boysun, Navro'z, etnografiya, marosim, Zardushtiylik

THE PRIESTLY INSTITUTION IN THE VIDEVDAT AND ITS TRANSFORMATION

IN THE BOYSUN
ETHNOGRAPHIC CONTEXT.

Abstract.

This article presents a comparative and functional analysis of the priestly institution described in the Vendidad, a key text of the Avesta within the Zoroastrian religious and philosophical system. The study employs a multidisciplinary approach, combining textual analysis of written sources with ethnographic evidence in order to identify structural continuity between ancient ritual systems and contemporary cultural practices. Ritual practices in the Boysun region are typologically compared with the priestly system, revealing aspects related to collectivity, functional division of labor, and ritual order. Particular attention is given to collective organization, functional division of ritual labor, and ceremonial order. The findings indicate that the Zoroastrian ritual system possessed a complex hierarchical structure, elements of which have been preserved in transformed forms within the ethnographic traditions of Central Asia.

Keywords:

Avesta, Vendidad, priestly system, Boysun, Navruz, ethnography, ritual, Zoroastrianism

ЖРЕЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ В «ВИДЕВДАТЕ» И ЕГО ТРАНСФОРМАЦИЯ

В ЭТНОГРАФИЧЕСКОЙ
СРЕДЕ БОЙСУНА.

Аннотация.

В данной статье проводится сравнительный и функциональный анализ института жрецов в тексте Видевадат, являющемся важной частью Авесты зороастрийской религиозно-философской системы. Исследование основано на комплексном подходе, включающем анализ письменных источников и этнографических материалов, что позволяет выявить структурную преемственность древних ритуальных систем в современной культурной среде. Обрядовые практики Бойсунского региона типологически сопоставляются с жреческой системой, при этом раскрываются аспекты коллективности, функционального разделения труда и ритуального порядка. Особое внимание уделяется вопросам коллективности, функционального разделения труда и ритуального порядка. Результаты исследования показывают, что зороастрийская ритуальная система имела сложную иерархическую структуру, отдельные элементы которой в трансформированном виде сохранились в этнографических традициях Центральной Азии.

Ключевые слова:

Авеста, Видевадат, жреческая система, Бойсун, Навруз, этнография, ритуал, зороастризм

Kirish.

Zardushtiylik marosimlarida shakllangan kohinlar tizimini zamonaviy etnografik materiallar bilan qiyosiy o'rganish muhim ilmiy xulosalarga olib keladi. Ayniqsa, Boysun hududida saqlanib qolgan an'anaviy marosimlar o'zining ichki tuzilishi va tashkiliy jihatlarini bilan qadimgi diniy tizimlarga tipologik yaqinlikni namoyon etadi. Ushbu hududning arxaik madaniy qatlamlari haqida Gleb Pavlovich Snesev marosimlarning jamoaviy xarakteri hamda unda ishtirokchilar o'rtasida vazifalarning aniq taqsimlanganini qadimgi diniy amaliyotlar bilan bog'liq holda izohlaydi¹. Shunga o'xshash fikrlarni Sergey Pavlovich Tolstov ham ilgari surib, marosimiy an'analar tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarishlarga uchrasa-da, ularning asosiy strukturaviy unsurlari saqlanib qolishini ta'kidlaydi².

Etnografik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Boysun hududida amalga oshiriladigan marosimlarda muayyan funksional rollar ajratilgan: marosimni boshqaruvchi yetakchi shaxs, qurbonlikni amalga oshiruvchi ijrochilar, olov bilan bog'liq marosimlarni bajaruvchilar, poklanish jarayonini ta'minlovchilar hamda umumiy tartibni nazorat qiluvchi shaxslar mavjud³. Mazkur rollar Videvdat matnida qayd etilgan kohinlar — Zaotar, Rathwiskar, Atare-vakhsha, Asnatar va Sraosha-varez funksiyalariga tipologik jihatdan yaqinlik kasb etadi.

Bundan tashqari, Boysun bahori doirasida o'tkaziladigan marosimlar ham jamoaviylik, qat'iy ketma-ketlik va ramziy harakatlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ushbu holat UNESCO tomonidan e'tirof etilgan materiallarda ham o'z aksini topgan bo'lib, unda Boysun madaniy muhitining qadimiy an'analarni saqlab qolganligi alohida qayd etiladi⁴. Mazkur etnografik ma'lumotlar zardushtiylik marosim tizimining murakkab va ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Ma'lumki, zardushtiylikda, ayniqsa qurbonlik va Haoma tayyorlash bilan bog'liq marosimlar bir nechta ixtisoslashgan kohinlar ishtirokida amalga oshirilgan. Bu esa marosimlarning oddiy diniy amal emas, balki qat'iy tashkil etilgan va ichki funksional bo'linishga ega tizim ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, zardushtiylik dini qadimgi O'rta Osiyo hududida shakllangan eng murakkab diniy-falsafiy tizimlardan biri bo'lib, uning marosimiy tuzilmasi aniq iyerarxiya va mehnat taqsimotiga asoslangan. Ushbu tizimning asosiy yozma manbasi hisoblangan Avesto, xususan Videvdat qismi, nafaqat diniy poklik qoidalarini, balki kohinlar institutining funksional tuzilishini ham yoritib beradi. Shu nuqtayi nazardan, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zardushtiylik marosimlari qat'iy

tartibga solingan tizim sifatida shakllangan bo'lib, unda diniy, huquqiy va axloqiy normalar o'zaro uyg'unlashgan. Avesto matni esa ushbu tizimning nazariy va amaliy asoslarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Zardushtiylik dini insoniyat tarixidagi eng qadimgi diniy-falsafiy tizimlardan biri bo'lib, uning marosimiy amaliyoti qat'iy tartib va aniqlik bilan ajralib turadi. Ushbu tizimning asosiy yozma manbasi bo'lgan Avesto nafaqat diniy e'tiqodlar majmuasi, balki huquqiy, axloqiy va marosimiy normalarni ham o'zida mujassam etadi. Xususan, Videvdat (ya'ni "devlarga qarshi qonun") qismi diniy poklik, marosimiy tartib va kohinlar faoliyatini tartibga soluvchi muhim manba hisoblanadi⁵.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tadqiqot metodi sifatida "Yozma manbalarining ilmiy-texnologik xaritasi" metodidan foydalanilgan holda "Avesta"ning bir qator tillardagi tarjimalari tahlil qilindi. Bundan tashqari tarixiy xolislik, xronologik ketma-ketlik va qiyosiy taqqoslash usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Zardushtiylik marosimlari, ayniqsa qurbonlik va Haoma tayyorlash jarayonlari ko'p bosqichli va kollektiv xarakterga ega bo'lib, bu jarayonlarda turli ixtisoslashgan kohinlar ishtirok etgan. Shu bois, kohinlar institutini o'rganish zardushtiylikning ichki tashkiliy mexanizmini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zardushtiylik dini qadimgi O'rta Osiyo diniy-falsafiy tizimlarining eng murakkab shakllaridan biri bo'lib, uning marosimiy tuzilmasi qat'iy iyerarxiya va aniq funksional mehnat taqsimotiga asoslanadi. Ushbu tizimning asosiy yozma manbasi bo'lgan Avesto tarkibidagi Videvdat matni nafaqat diniy poklik qoidalarini, balki marosimni amalga oshiruvchi kohinlar institutining to'liq funksional tizimini ham yoritadi. James Darmesteter nashrida 5-fargard 57–58-qismlar va 7-fargarddagi 17-18-qismlar tegishli parchalar orqali zardushtiylik marosimlarida sakkiz asosiy kohin funksiyasi mavjudligi ko'rsatiladi⁶. Ushbu tizim marosimning turli bosqichlarini bajaruvchi maxsus ixtisoslashgan xizmatlardan iborat bo'lib, har bir kohin aniq va takrorlanmas vazifaga ega. Matndan anglashiladiki, marosim individual emas, balki jamoaviy faoliyat sifatida tashkil etilgan. Har bir kohin alohida vazifani bajaradi va bu vazifalar bir-birini to'ldiradi. Shu jihatdan, Videvdatdagi kohinlar tizimi qadimgi diniy mehnat taqsimotining mukammal namu-

1 Snesev G. P. Реликты доисламских верований и обрядов у узбеков. — Москва: Наука, 1969. — С.45-47

2 Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. — Москва: МГУ, 1948. — С.120

3 Tursunov S.N. va boshq. Surxondaryo – etnografik makon. Toshkent, 2012. —37

4 Boysun Cultural Space — Masterpieces of the Oral and Intangible Heritage of Humanity. — Paris, 2001.

5 Henrik Samuel Nyberg. Die Religionen des alten Iran. Leipzig: J. C. Hinrichs Verlag, 1938. P-225.

6 James Darmesteter, Vendidad (Vidēvdād) or Laws against the Demons, in: Avesta: The Sacred Books of Zoroastrianism, Book 3, trans. from Sacred Books of the East (American Edition, 1898), ed. Joseph H. Peterson. P-46,57.

nasi sifatida qaralishi mumkin. J. Darmesteter nashrining 5-fargard 57–58-bandlarida Zardusht va Ahura Mazda o'rtasidagi dialog orqali muqaddas kiyimlarning ritual yaroqliligi masalasi ko'rsatiladi. Unda muqaddas kiyimlar hatto yuvilib tozalanganidan keyin ham Zaotar, Havanan, Atare-vakhsha, Frabaretar, Abered, Asnatar, Rathwiskar va Sraosha-varez kabi kohinlar tomonidan hamda oddiy jamiyat qatlamlari — ruhoniy, jangchi va dehqonlar tomonidan ham qayta ishlatilishi mumkin emasligi qat'iy ta'kidlanadi¹. Bu esa zardushtiylikda ritual ifloslanish (nasu) tushunchasining qanchalik keskin va mutlaq xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Mazkur kohinlar tizimi o'zaro bog'langan sakkiz asosiy funksional bo'linmadan iborat bo'lib, ularning har biri marosimning alohida bosqichini bajaradi. Zaotar — oliy kohin bo'lib, butun ritualni boshqaradi va muqaddas matnlarni o'qish orqali marosimga ilohiy mazmun beradi². Havanan Haoma sharbatini tayyorlash va siqish jarayoniga mas'ul bo'lib, hayotiy kuch va muqaddaslik ramzini shakllantiradi. Atare-vakhsha muqaddas olovning saqlanishi va pokligini ta'minlaydi, chunki olov zardushtiylikda ilohiy tartibning markaziy belgisi hisoblanadi³. Frabaretar marosim uchun zarur anjomlar va qurbonlik materiallarini tayyorlab, ularni muqaddas hududga yetkazadi. Abered suv bilan bog'liq poklikni ta'minlab, marosimiy tozalikni nazorat qiladi. Asnatar esa idishlar va ishtirokchilarning marosimiy poklanishini amalga oshiradi. Rathwiskar qurbonlik jarayonining amaliy ijrochisi sifatida hayvon qurbonligini bo'laklash va uni belgilangan tartibda taqsimlash bilan shug'ullanadi⁴. Sraosha-varez esa butun jarayon davomida tartib-intizomni nazorat qilib, marosimning to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Kohinlar tizimining mavjudligi qadimgi jamiyatda diniy faoliyatning yuqori darajada ixtisoslashganini ko'rsatadi. Bu holat diniy marosimlarning oddiy ibodat emas, balki murakkab tashkiliy tizim sifatida shakllanganini anglatadi. Shu bilan birga, 7-fargarddagi parallel parchalar ham J. Darmesteter nashrida aynan shu kohinlar tizimini takroran tasdiqlaydi va ritual poklik qoidalarining yanada mustahkamligini ko'rsatadi⁵. Bu esa zardushtiylik marosimlarida kohinlar faqat diniy ijrochi emas, balki aniq ijtimoiy va ritual funksiyalarga ega ixtisoslashgan institut ekanini anglatadi. Shuningdek, bu iyerarxiya zardushtiylikda tartib (asha) va tartibsizlik (druj) o'rtasidagi kurash konsepsiyasi bilan ham uyg'unlashadi. Har bir kohinning o'z vazifasini aniq bajarishi kosmik tartibni saqlashning

muhim sharti sifatida qaralgan.

James Darmesteter talqinida ushbu tizim faqat nomlar majmuasi emas, balki to'liq funksional ritual mexanizm sifatida ko'rsatiladi. Har bir kohin marosimning muayyan bosqichini bajaruvchi ixtisoslashgan birlik sifatida ishlaydi. Zardushtiylik marosimlarida ishtirok etuvchi kohinlar tarkibi masalasi Videvat matnining turli tarjimalarida bir xil darajada aks etmagan. Xususan, Asqar Mahkam tomonidan amalga oshirilgan tarjimada quyidagi muhim parcha keltiriladi:

“...Бир карра ювилиб, пок бўлган аёл энгил бошини саккиз нафар мўътабар пешволар — завт (zaotar), ҳованак (havanan), атарвахш (atarvakhsh), фрабритар (fraberetar), обирит (aberet), оснатар (asnatar), роспий (raetvishkar), сравшавариз (sraoshavarez), олов қўриқловчи отурбон ва бир дехкон кийдира оладими?”⁶[6:127] O'zbek tarjimalari orasida Asqar Mahkam tarjimasida kohinlarning nomlari aniq va izchil tarzda berilgan bo'lib (Zaotar, Havanak, Atarvaxsh, Fraberitar, Obirit, Asnatar, Rosbiy, Sraoshavariz), matnning terminologik aniqligi saqlangan. Biroq muhim ilmiy jihatdan shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tarjimada kohinlarning funksional vazifalari alohida ochib berilmagan, ya'ni har bir kohinning marosimdagi aniq roli izoh sifatida kengaytirilmagan. Shu sababli Mahkam tarjimasida kohinlar tizimini nominal darajada saqlab qoladi, funksional rekonstruksiya esa tadqiqotchining matn tahlili orqali amalga oshiriladi. Mirsodiq Is'hoqov tarjimasida 5-fargard kohinlar tizimiga oid muhim parchalar bilan birga to'liq berilmagan, 7-fargardda esa 17–18-qismlar tarjima qilinmagan⁷. Natijada mazkur tarjima asosida kohinlar iyerarxiyasi va ularning funksional vazifalarini to'liq tiklash imkoni cheklanadi. Shu bois ushbu institutni ilmiy jihatdan rekonstruksiya qilishda James Darmesteter nashri hamda Asqar Mahkam tarjimasiga tayangan holda tiklash zarur hisoblanadi.

1 James Darmesteter, *Vendidad (Vidēvdād) or Laws against the Demons*, in: *Avesta: The Sacred Books of Zoroastrianism*, Book 3, trans. from *Sacred Books of the East (American Edition, 1898)*, ed. Joseph H. Peterson. P.46.

2 Panaino, Antonio. *Le collège sacerdotal avestique et ses dieux: Aux origines indo-iraniennes d'une tradition mimétique (Mythologica Indo-Iranica II)* (Bibliothèque de l'École des Hautes Etudes, Sciences Religieuses 195). Turnhout: Brepols. P.24.

3 Mary Boyce, *A History of Zoroastrianism: The Early Period*, vol. 1. Leiden: Brill, 1996. P. 167-170.

4 Kotwal, Firoze M. and Kreyenbroek, Philip G. *The Hērbedestān and Nērangestān. Vol. II: Nērangestān, Fragard 1*. Paris: Association pour l'avancement des études iraniennes, 1995. P.57-80

5 James Darmesteter, *Vendidad (Vidēvdād) or Laws against the Demons*, in: *Avesta: The Sacred Books of Zoroastrianism*, Book 3, trans. from *Sacred Books of the East (American Edition, 1898)*, ed. Joseph H. Peterson. P.57

6 *Avesto: Tarixiy-adabiy yodgorlik / Tarjimon va so'zboshi muallifi: Asqar Mahkam. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati*, 2001. B.127

7 *AVESTA: «Videvat» kitobi (M.M. Is'hoqov tarjimasini)*. T.: - 2016. B.45

№	Kohin nomi	J. Darmesteter tarjimasida	Asqar Mahkam tarjimasida	Izoh
1	Zaotar	Marosimni boshqaradi, madhiyalarni o'qiydi	Zavt	Bosh kohin
2	Havanan	Haoma sharbatini siqadi va tayyorlaydi	Hovanak	Ritual ichimlik tayyorlovchi
3	Atare-vakhsha	Muqaddas olovni yoqadi va saqlaydi	Atarvaxsh	Olov kohini
4	Frabaretar	Zarur anjomlarni olib keladi	Fraberitar	Marosim ta'minotchisi
5	Abered	Suvni olib keladi	Obirit	Suv bilan bog'liq poklik
6	Asnatar	Haoma va idishlarni tozalaydi	Asnatar	Poklovchi kohin
7	Rathwiskar	Haoma va sutni aralashtiradi	Rosbiy	Aralashtiruvchi
8	Sraosha-varez	Marosimni nazorat qiladi	Sraoshavariz	Tartib nazoratchisi

Videvdat matnida kohinlar nomlarining uchrash chastotasi ularning marosimdagi funksional ahamiyatini aniqlashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, Zaotar, Havanan, Atare-vakhsha, Frabaretar, Abered, Asnatar va Rathwiskar nomlari bir xil — 4 martadan uchrashi ularning marosim tizimidagi nisbatan muvozanatli va o'zaro bog'liq funksional o'rni ko'rsatadi⁸. Biroq Sraosha-varez nomining sakkiz marotaba uchrashi ushbu kohinning alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bu holat Sraosha-varezning marosim jarayonida nazorat, tartib va diniy intizomni ta'minlovchi markaziy figuraga aylanganini anglatadi. Shunday qilib, matn statistikasi kohinlar o'rtasidagi funksional iyerarxiyaning mavjudligini bilvosita tasdiqlaydi.

Zardushtiylik marosim tizimi tarixiy taraqqiyot davomida sezilarli soddalashuvni boshdan kechirgan. Agar Videvdat davrida marosim sakkiz ixtisoslashgan kohin tomonidan bajarilgan bo'lsa, keyingi davrlarda ushbu tizim bosqichma-bosqich qisqargan. Pahlaviy manbalarda bu jarayon allaqachon ikki asosiy kohin funksiyasiga birlashgani kuzatiladi. Hozirgi kunda esa zardushtiylik marosimlari, xususan Parsi an'anasida, asosan ikki kohin — Zaotar (Zot) va Rathwiskar (Raspi) tomonidan amalga oshiriladi⁹. Bunda Zaotar asosiy diniy matnlarni o'qish va marosimni boshqarish vazifasini bajaradi, Rathwiskar esa barcha yordamchi va texnik funksiyalarni o'z zimmasiga oladi¹⁰. Shu tariqa qadimgi sakkiz bosqichli murakkab tizim zamonaviy davrda soddalashtirilgan, biroq uning asosiy liturgik mohiyati saqlanib qolgan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, Videvdat matnida aks etgan kohinlar instituti zardushtiylik marosim tizimining eng murakkab va tizimli shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu

tizim sakkiz ixtisoslashgan funksiyaga ega kohinlardan iborat bo'lib, ular birgalikda marosim jarayonining to'liq va tartibli bajarilishini ta'minlaydi. Bu holat qadimgi diniy amaliyotlarda mehnat taqsimoti yuqori darajada rivojlanganini va zardushtiylik liturgik tizimi aniq tashkiliy asosga ega bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda Videvdat matni asosida kohinlar tizimining tuzilishi va funksional jihatlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, marosim jarayonida ishtirok etuvchi sakkiz turdagi kohin o'ziga xos vazifalarni bajarib, umumiy ritual yaxlitligini ta'minlagan. J. Darmesteter nashrida ushbu tizim to'liq va izchil yoritilgan bo'lsa, o'zbek tarjimalarida ayrim tafovutlar kuzatiladi. Xususan, Mirsodiq Is'hoqov tarjimasida matnning ba'zi qismlari to'liq berilmaganligi kohinlar tizimini to'liq rekonstruksiya qilishni qiyinlashtiradi. Asqar Mahkam tarjimasida esa kohin nomlari aniq berilgan bo'lsa-da, ularning funksional vazifalari keng ilmiy izohlanmagan. Shu bois kelgusidagi tadqiqotlarda turli tarjimalarni qiyosiy o'rganish, ayniqsa asl matn va tanqidiy nashrlarga tayangan holda kohinlar institutini yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Statistik tahlil natijalari ham kohinlar orasida vazifaviy farqlanish mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim kohin nomlarining ko'proq takrorlanishi ularning marosimdagi nisbatan muhimroq o'ringa ega ekanini bildiradi. Umuman olganda, Videvdat matni zardushtiylik marosim tizimining ancha murakkab va tartibli bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa qadimgi davrlarda diniy jarayonlar ham aniq mehnat taqsimoti asosida tashkil etilganini anglashga yordam beradi.

8 Murodova, G. M. Avestaning ilmiy-texnologik xaritasi: Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz: Termiz davlat universiteti, 2022. B.59.

9 Kotwal, Firoze M. and Kreyenbroek, Philip G. The Herbedestan and Nêrangestân. Vol. III: Nêrangestân, Fragard 2. (Studia Iranica. Cahier 30). Paris: Association pour l'avancement des études iraniennes, 2003. P.75-88.

10 Filipp Kreyenbrok, Living Zoroastrianism: Urban Parsis Speak about their Religion". London: Routledge, 2001. P.55